

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Shermuhammadov**

Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot ..... 6

## PEDAGOGIKA

**T.Egamberdiyeva, O.Ashurova**

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari ..... 9

**U.Maqsdov, R.Rahmonova**

Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida ..... 12

**M.Suyunova**

Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari ..... 17

**N.Saidova, B.Abdullayeva**

Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentliligini rivojlantirishni modeli ..... 20

**X.Tojiboyeva**

O'smir yoshdagagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ..... 24

**A.Kalliyev**

Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar ..... 27

**I.Usmonaliyev**

Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili ..... 32

## FALSAFA, SIYOSAT

**A.Yuldashev**

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati ..... 37

**Q.Aliqulov**

Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlari iqtisodiy faolligiga ta'siri ..... 41

## ТАРИХ

**X.Boymirzayev, Z.Jobborov**

Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan ..... 46

**X.Mamajonov**

Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtaidagi manfaatlar to'qnashushi va diplomatik aloqalarning boshlanishi ..... 49

**A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov**

Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida ..... 53

**A.Abduxalimov**

Vodiylar qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi ..... 57

**I.Yusupov**

O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi ..... 62

**I.Turdiyev**

Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analari va Marosimlari ..... 67

**Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov**

O'zbekistonning Samarqand shaxridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti ..... 70

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**L.Axmadaliev**

Po'latjon Qayyumiylar zamondoshlari xotirasida ..... 85

## O'ZBEKİSTONDA HÜDUDİY TELEKANALLARNING TASHKIL ETİLİŞİ VA RIVOJLANISH TARİXİ

### ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ И РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНЫХ ТЕЛЕКАНАЛОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

### HISTORY OF CREATION AND DEVELOPMENT OF REGIONAL TV CHANNELS IN UZBEKISTAN

Yusupov Izzat Sultonovich<sup>1</sup>

Yusupov Izzat Sultonovich<sup>1</sup>

– Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

#### Annotasiya

Mazkur maqolada Mamlakatimizda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o'tkazgan ta'sirlari tizimli asosda tahlil etilgan. Respublikamizda mahalliy televideniyelarning rivojlanish jarayoni va uning fuqorolar hayotidagi o'rni tarixiylik tamoyiliiga amal qilingan holda o'rganilgan. Maqolada ilmiy tahlilning analiz va sintez, davriylilik, tarixiy va tavsify yondashuv kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek tarix fanida tan olingen yondashuv va usullar, tarixiy adabiyotlar, aloqa korxonalarining rasmiy veb-saytlari, nashrlari kabi birlamchi manbalar, gazeta, jurnal, to'plamlarda e'lon qilingan maqolalardan foydalanildi.

#### Аннотация

В данной статье на системной основе анализируется становление региональных телеканалов в нашей стране и их влияние на общественно-политические процессы. Процесс развития местного телевидения в нашей республике и его роль в жизни горожан изучены по принципу историчности. В статье используются такие методы научного анализа, как анализ и синтез, периодичность, историко-описательный подход. Также использовались подходы и методы, призванные в истории, исторической литературе, первоисточниках, таких как официальные сайты и публикации компаний связи, статьи, опубликованные в газетах, журналах, сборниках.

#### Abstract

This article systematically analyzes the formation of regional TV channels in our country and their impact on socio-political processes. The process of development of local television in our republic and its role in the life of citizens are studied according to the principle of historicity. The article uses such methods of scientific analysis as analysis and synthesis, periodicity, historical and descriptive approach. Approaches and methods recognized in history, historical literature, primary sources, such as official websites and publications of communication companies, articles published in newspapers, magazines, and collections were also used.

**Kalit so'zlar:** Televizor, ko'chma telestansiya, teleyangiliklar, teledastur, magnoliya, oynai jahon, O'zbekiston, Yoshlar.

**Ключевые слова:** Телевизор, передвижная телестанция, теленовости, телепрограмма, магнолия, зеркальный мир, Узбекистан, Молодежь.

**Key words:** TV, mobile TV station, TV news, TV program, magnolia, mirror world, Uzbekistan, Youth.

**KIRISH.** XXI asrda mamlakatimiz hayoti va rivojini keng qamrovli ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etish mushkul. So'z, axborot, ko'plab xilma-xil tasvirlarni uzoq-yaqin masofalarga uzatish va qabul qilish jarayonlari turmush tarzimizga chuqur singib, kundalik ehtiyojga aylanib qoldi. Respublikamizda hududiy telekanallarning tashkil qilinishi natijasida ko'p sonli aloqa kanallari, ba'zan ko'ranmas va ulkan tarmoq kabi mamlakatimiz hududini qamrab oldi. Sohaga doir yangi infratuzilmalar yaratildi. Respublikamizda davlat va jamiyat hayotini erkinlashtirish sharoitida televideniye sohasini rivojlantirish demokratik islohatlarni chuqurlashtirishning muhim yo'nalishiga aylandi. Mamlakatimizda hududiy telekanallarning tashkil qilinishi hamda olib borayotgan faoliyati, ularning moddiy-texnik holati, kadrlarni tayyorlash, bilan qamrab olinishi jarayoni tizimli ravishda o'rganilmagan. Bunday yangilanishlar va rivojlanish jarayonni aholini ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rnini alohida mavzu doirasida tadqiq etishni taqozo etmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixiga oid umumiylar A. Karimov, M. Masharipov, E.B. Mahmudov, V.Z.Zuparov, O.A.Xolmatov, M.Ro'ziyev, X.Jo'rayev, T.A.Axmedov, I.S.Yusupovlarning risola va

## TARIX

kitoblarida ma'lumotlar aks ettirilgan bo'lsada, yetarli o'rin ajratilmagan. Shu bilan bir qatorda hududiy telekanallarning rivojlanish yo'nalishlari, xaqida ma'lumot bergan gazeta, jurnal va veb saytlarda mavzuga oid berilgan maqolalarni ilmiy muomalaga kiritish va ilmiy xulosalar chiqarish zarurligini ko'rsatadi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Televideniye atamasi ilk bor 1890-yilda paydo bo'lgan va u "Masofadan ko'rish" ma'nosini anglatadi. Mazkur so'zni ilk bor Parijda o'tkazilgan xalqaro kongressda rus muhandisi Perskiy "Elektron televideniye" nomli ma'ruzasida ishlatgan [1]. 1907-yilda Peterburgda rus kashfiyotchisi Boris Lvovich Rozen "Elektr teleskop" bilan qiziqib qoladi va tasvir yoyish tamoyilini takomillashtiradi. 1911-yil 9-mayda elektron nurli trubka ekraniga harakatsiz panjara tasviri uzatiladi [2]. Insoniyat tarixidagi buyuk kashfiyotlardan biri televizor Toshkentda yaratilgan. 1928-yil 26-iyul kuni O'zbekistonlik ixtirochilar B.Garabovskiy va I.Belyanskiy tomonidan yaratilgan ilmiy-texnik ishlanma "telefot" maxsus komissiya sinovidan o'tkazilib, dunyoda birinchi televizor paydo bo'lishiga sabab bo'ldi va maxsus patent berilgan [3].

Muntazam ko'rsatuvarlar 1936-yilda Buyuk Britaniya va Germaniyada, 1938-yilda tajriba sinov tariqasida Moskva va Sankt-Peterburgda, 1939-yilda esa Buyuk Britaniya va Germaniyada, 1941-yilda esa AQSHda efirga uzatila boshlangan. Afsuski, xalqimiz insoniyatga oynai jahonni armug'on qilgan bo'lsada, uning efir namoyishlaridan biroz kech bahramand bo'ldi. Albatta, buning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy sabablari bor edi [4]. O'zbekistonda televizion ko'rsatuvarlar 1956-yil 5-noyabrda Toshkentda rasman boshlandi. Shu yili Toshkent televideniye studiyasi tashkil etilib ishga tushdi va bittagina dastur 180 metrlik telemisoraga o'rnatilgan antenna va TTR-5/2,5 kvt., uzatgich orqali efirga chiqdi. 1958-yil ko'chma telestansiyaga ega bo'lib, o'z ishini Alisher Navoiy nomidagi Katta akademik teatrda 8 martga bag'ishlangan tantanali yig'ilishni olib ko'rsatishdan boshlagan [5]. Shu tarzda muntazam ko'rsatuvarlar boshlandi.

Shu yili ko'chma televizion studiya orqali birinchi marta studiya tashqarisidan ko'rsatuvar olib borildi. Televideniye bo'lgan talab respublikamiz aholisi o'rtasida kun sayin ortib tobora keng tarqalmoqdaligini 1961-yilda O'zbekiston aholisining 65 foizidan ko'prog'i televideniye eshittirishlaridan bahramand bo'lishgani ta'kidlash joiz [6]. 1961-yil 31-dekabrda Xorazm televideniyesi o'z faoliyatini boshladi. Viloyat hududida mustaqil dasturga ega kichik telemarkazning barpo etilishini aholi yuqori kayfiyat bilan kutib olindi [7]. Ko'rsatuvarlar kechqurun soat 18.00 da boshlanib, "Yangiliklar", Xorazm televideniyesi ishga tushishi munosabati bilan tabriklar, viloyat partiya qo'mitasi birinchi kotibi Faxriddin Shamsiddinovning voha axliga yangi yil tabrigi, O'zbekiston Oliy Soveti raisi Yodgora Nasriddinovaning Xorazm televideniyesi ishga tushishi munosabati bilan qutlovi va "Mosfilm" kinostudiyasining mahsuloti — "Karnavalnaya noch" badiiy filmi efirga berilgan [8].

1964-yil 5-noyabrda Qoraqalpog'istonda ham televideniye o'z faoliyatini boshlagan va shu kunning o'zidayoq birinchi ko'rsatuvinu efirga uzatgan. Dastlabki vaqtarda qoraqalpoq va rus tillarida 5 daqiqadan "Teleyangiliklar" tayyorlanib efirga uzatilgandi [9]. Qashqadaryo vohasida teleko'rsatuvarlar asosan 1965-yildan uzatila boshlangan. Bu Dehqonobod tumanining Beshbulq qishloq yaqinidagi dengiz sathidan 1260 metr balandlikda, balandligi 30 metrli antenna machtasining o'rnatilishi bilan bog'liq. Antenna-machtaga R-60/120 rusumli radiorele uskunasi antennalari o'rnatilib, Taxtaqoracha – Qarshi – Odamtosh – Darband – Jarqo'rg'on RRL liniyasi bir vaqtida montaj qilinib ishga tushirildi. Bu esa o'z navbatida, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida televideniyeye dasturlari tarqatilishini ta'minlab keldi [10].

1989-1990-yillarda Respublikamizning bir qator viloyatlarda ham televideniyelar o'z faoliyatini boshladi. Jumladan 1989-yilda Samarqand televideniyesining viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid dastlabki ko'rsatuvari tayyorlanib, oynai jahon orqali tajriba tariqasida efirga uzatildi. 1991-yildan viloyat televideniyesi ko'rsatuvari haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari bir soatdan dastlab "O'zbekiston", keyin "Yoshlar" telekanallari to'lqinida efirga chiqsa boshladi. 1990-yil 18-oktabrda Namangan viloyati televideniyesi o'zining tajriba sinov ko'rsatuvarlarini efirga uzatgan. O'sha paytda "Magnoliya" rusumli ko'chma televizion stansiya hamda "KT – 132" markali 3 ta telekamera bilan ish boshlagan televideniyeye texnik jihatdan ancha kuchsiz edi [11]. 1990-yilda Jizzax viloyati televideniyesi tashkil etilib, uning birinchi ko'rsatuvari efirga uzatilgan [12].

Shu yilning 16-oktabrda Respublikamizning janubiy viloyati bo'lmish Surxondaryo viloyati televideniyesining dastlabki ko'rsatuvi efirga uzatildi. Ko'rsatuv 20 daqiqadan iborat bo'lib, unda

Jarqo'rg'on tumanidagi mirishkorlarning hayoti va mehnat faoliyati aks etgan. Teleko'rsatuvalr 1991-yildan muntazam ravishda efirga uzatila boshlangan. O'sha paytda Surxondaryo televideniyesining bir kunlik efir hajmi 1 soatu 10 daqiqani tashkil etgan. Dastlabki paytlarda viloyat televideniyesi "O'zbekiston", keyinchalik "Yoshlar" telekanali to'lqinida efirga chiqqan.

1991-yildan Samarqand viloyat televideniyesi ko'rsatuvalri haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari bir soatdan dastlab "O'zbekiston", keyin "Yoshlar" telekanallari to'lqinida efirga chiqqa boshladi. 1991-yil 25-oktabrdan Andijon televideniyesini ko'rsatuvalri efirga uzatila boshlangan. Dastlab haftasiga bir soat, keyinchalik haftada ikki marotaba bir yarim soatlik teledastur efirga uzatilgan. Shu yili Namangan televideniyesining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, ijodkorlar uchun qulay sharoitlar yaratildi, turkum ko'rsatuvalr tashkil etildi [13].

1991-yil dekabr oyida Farg'ona viloyat televideniyesiga zamonaviy telekameralar, videouskunalar keltirildi. Teleko'rsatuvalrni tayyorlashda "2 ta Panosonik-70" videokameralari va shu nomdagi videomagnitonidan foydalanilgan. Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'nnaviy hayoti aks etgan birinchi teleko'rsatu 1991-yilning 22-dekabrida efirga uzatildi. Zamonaviy telestudiya foydalanishga topshirilgunga qadar radiostudiyada ko'rsatuvalr tasvirga tushirilgan. 1992-yili Samarqand viloyat televideniyesi 28 DMV kanali orqali efirga uzatila boshlandi. 1994-yil 13-martdan Buxoro televideniyesi o'z ko'rsatuvalrini efirga muntazam uzata boshladi. Dastlab ko'rsatuvalr haftada uch marta, jami 1 soatu 10 daqiqqa hajmda namoyish qilingan [14].

1995-yil 23-yanvarda Qashqadaryo viloyat televideniyesini tashkil etish to'g'risida farmoyish qabul qilinadi. Mana shu hujjatga asosan Qashqadaryo televideniyesi tashkil etilib, unga 200 ming AQSH dollaridan ortiq mablag' evaziga xorijdan zamonaviy asbob-uskunalar, ikki dona "Sonny Betkam SP" telekamera hamda ikki jamlanma oddiy chiziqli montaj stoli keltirilib o'rnatildi. 1995-yil 24-avgust kuni soat 17.00 da ilk sinov ko'rsatuvi efirga uzatildi. 1996-yilning oxirida Samarqand teleradiokompaniyasi Ozod Sharq ko'chasi 4-uyga ko'chirilishi natijasida viloyat radio va televideniyesi bir joyda faoliyat ko'rsata boshladi [15]. Mustaqillik yillarda televizion uzatish tarmog'i faol rivojlandi. Hatto televizion to'lqinlar uzatish o'ta murakkab bo'lgan Farg'ona viloyatining So'x va Namangan viloyatida chekka Zarkent tumanlarida ham bemalol televizor tomosha qilish imkoniyati yaratildi. 1998-yili Farg'ona viloyatida yangi stansiya qurildi [16].

1999-yilning 1-dekabridan Farg'ona viloyatining So'x tumanı aholisining talab va istaklarini hisobga olib, muxislarni tezkor axborotlar bilan ta'minlash hamda teleradioeshittirishlarni yanada rivojlantirish maqsadida viloyat teleradiokompaniyasi tarkibida So'x tumanida ko'rsatuvalr olib boruvchi tahririyat tashkil etildi. 2005-yilda So'x tumanidagi stansiyada yangi apparat zali qurilib, unga Yaponiyaning NEC firmasida ishlab chiqilgan kam quvvatli teleuzatgich o'rnatildi va "O'zbekiston" kanalining birinchi dasturi tarqatila boshlandi. Andijonning Beshbosh adirligida joylashgan stansiyada ham ikkita shunday teleuzatgich o'rnatilib, vodiyo bo'ylab uzatish yo'lga qo'yildi. 2000-yilda Namangan viloyati televideniyesi viloyat teleradiokompaniyasi uchun qariyb 504 mln. 15 ming so'm mablag' evaziga yangi telemarkaz qurib bitkazildi. Zamonaviy televideniye studiyalari barcha sharoit va qulayliklarga ega bo'lib, o'sha davrning eng so'nggi rusumdag'i apparaturalari o'rnatildi [17]. 2000-yilning 1-fevralidan Navoiy viloyati televideniyesi tashkil qilindi. Dastlabki davrda haftasiga 2 soatdan ko'rsatuvalr efirga berib kelingan. Teledasturlar yozib olinib, Navoiy RTUM (radioteleuzatish markazi)dan DVD pleyerlar yordamida efirga tarqatilgan [18]. 2001-yilda mamlakatimizda qirqqa yaqin mahalliy (viloyat va tuman) xususiy nohukumat tele va radiokompaniyalari faoliyat ko'rsatgandi [19].

2001-yilning 27-dekabrida Qashqadaryo teleradiokompaniyasining yangi binosi qurib bitkazildi va viloyat telemarkazi ochildi. 2002-yilda bir dona "Sonny Betkam SP" telekamera hamda bir jamlanma "Sonny Betkam SP" oddiy chiziqli montaj stoli olib kelindi. 2003-yilda Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasiga "Cimenc Bfe" firmasi Germaniyaning uch kamerali studiya jihozlari o'rnatildi. Natijada viloyat televideniyesining efir soatlari 6 soatga uzayib, dushanbadan tashqari har kuni efirga chiqish imkoniyati vujudga keldi. 2005-yil sentabr oyiga qadar Sirdaryo viloyat teleradiokompaniyasi o'zining doimiy binosiga ega bo'lmagan. Sirdaryo viloyati hokimining 2005-yil 22-avgustdag'i 137-sonli qarori bilan Guliston shahrida televideniye uchun bino ajratildi. 2007-yilda Qashqadaryo televideniyesining efir soati 8 soatga uzaydi. 2008-yilning aprel oyidan viloyat televideniyesining teleko'rsatuvalrui alohida kanal orqali namoyish etilishi natijasida efir soatlari

## TARIX

yanada kengaytirildi. 2007-yildan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasi kuniga 16 soat hajmda teleko'rsatuvlarni efirga berishni yo'lga qo'ydi [20].

2009-yilda Xorazm teleradiokompaniyasini Germaniyaning "Simens" firmasining televizion uskunlari bilan qayta jihozlash ishlari yakunlandi. Xorazm televideniyasi shu yildan mustaqil kanalga, alohida 1 kilovattlik teleuzatgichga ega bo'ldi va kuniga 1 soat 20 daqiqalik efirdan, 16 soatlik ko'rsatuvlarni chiqarishga erishildi. Ko'rsatuvlar nafaqat hajm jihatdan, balki mazmun va mavzu jihatidan ham kengayib, yuqori texnik sifatga ega bo'ldi [21]. 2008-yil 1-yanvaridan alohida to'lqinda Surxondaryo viloyati televideniyesining viloyat bo'yicha tele efir berish yo'lga qo'yildi.

Jizzax televideniyesining efir vaqt 2002-yildan haftasiga 6 soat, 2010-yildan har kuni 8 soatni tashkil etgan. 2013-yildan boshlab viloyat televideniyesi ko'rsatuvlarini raqamli formatda efirga uzatishning yo'lga qo'yilishi, ishlab chiqarish jarayonining texnik jihatdan zamon talablari asosida to'liq jihozlanishi ijodkorlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Shu yilning 1-apreldan Sirdaryo viloyati teleradiokompaniyasi teleko'rsatuvlarni raqamli formatda efirga uzatish yo'lga qo'yildi [22].

2011-yilda Nukus RTSga 50-60 km. radiusdagi hududni qamrab oluvchi 2,0 kvt quvvatga ega Germaniyaning Rodhe&Schwarz kompaniyasining raqamli teleuzatgichi (DVB-T standarti) o'rnatildi. Natijada Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining 34 foizdan ortig'i raqamli televideniye signallari bilan qamrab olindi. 2013-yil may oyidan boshlab mahalliy "Qoraqalpog'iston" telekanali raqamli formatda efirga uzatila boshlandi [23].

2013-yil 22-maydan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining ko'rsatuvlari raqamli tizim orqali efirga uzatilmoqda. Samarqand viloyatining ma'muriy markazi – Ko'ksaroy maydonida viloyat teleradiokompaniyasi uchun 4 qavatdan iborat bino qayta ta'mirlanib, tele va radioapparatxonalar joylashtirildi va barcha talablarga javob beradigan zamonaviy yangi telestudiya barpo etildi hamda 2015-yil viloyat teleradiokompaniyasi ushbu zamonaviy binoga ko'chib o'tdi [24].

2013-yil 20-apreldan Xorazm televideniyesi dasturlari analog format bilan bir vaqtida raqamli formatda efirga tarqatila boshlandi. Efir sifati keskin yaxshilanib, qamrovi kengaydi. Yangi zamonaviy videokameralar sotib olindi va ichki imkoniyatlar hisobiga kichik ko'chma televizion stansiya (mini KTS) ishga tushirildi. Xorazm telekanali tomoshabinlar sevib tomosha qiladigan telekanalga aylandi. 2014-yildan boshlab viloyat televideniyesi ko'rsatuvlarini "Diyor" telekanali orqali butun mamlakat aholisi tomosha qiladigan bo'ldi [25].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2016-yil 11-noyabr kuni Shovot tumanida Xorazm viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvda: "Biz bugun axborot va globallashuvi davrida yashayapmiz. Biz istaymizmi, yo'qmi, yurtimizga turli ko'rinishdagi axborot xurujlari bo'lishi tabiiy. Ana shunday xurujlarga qarshi aholida, ayniqsa, yoshlarda immunitetni mustahkamlash, ularni milliy qadriyatlarimiz, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda televideniye va radioning o'rni beqiyosdir. Afsuski, Toshkentdagagi respublika televideniyesidan keyin ikkinchi bo'lib respublikamizda ish faoliyatini boshlagan Xorazm viloyati televideniyesi binosi o'tgan asrning 60-yillarda hashar yo'lli bilan qurilgan. Bu bino bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermaydi. Shu sababli, viloyat televideniyesi uchun Urganch shahri markazida yangi bino qursak"[26] degan taklifni ilgari surdi. Respublika byudjetidan 26 milyard so'm mablag' ajratilib zamonaviy loyihadagi yangi teleradiokompaniya binosini qurish ishlari boshlandi. Yangi bino 2018-yil 31-dekabrda foydalanishga topshirildi.

**XULOSA.** 1928-yil 26-iyulda televizor Toshkentda yaratilib, maxsus patentga O'zbekistonlik olimlar ega bo'lishgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan televideniyening ilk ko'rsatuvlari dastlab Buyuk Britaniya va Germaniyada, keyinchalik Moskva va AQSHda efirga uzatila boshlangan. Mamlakatimizda televizion ko'rsatuvlar 1956-yil 5-noyaborda rasman boshlandi. Shunday bo'lishiga qaramasdan 1961-yilga kelib Respublika aholisining 65 foizigina televideniye ko'rsatuvlarini tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

O'zbekistonda birinchilardan bo'lib markazdan 1000 km uzoqlikda joylashgan Xorazmda 1961-yilda xashar yo'lli bilan birinchi televideniye qurilib ishga tushiriladi. 1964-yilda Qoraqalpog'istonda, 1989-yilga kelibgina Samarqandda, 1990-yilda Namangan va Surxondaryoda mahalliy televideniyelar o'z faoliyatini boshlaydi. Sobiq Ittifoq davrida Respublikaning boshqa

viloyatlarida mahalliy televideniylarni o'sha davrdagi mafkuraviy sabablarga ko'ra ochilishiga yo'l qo'yilmagan.

Hududiy televideniylarning yangi bosqichga ko'tarilishida zamonaviy jihozlar bilan bir qatorda sohada faoliyat olib borayotgan jurnalist va texnik xodimlarning bevosita xizmati katta bo'lgandi. Aholini tarbiyalash va dam olish vositasi sifatida mazkur axborot vositalarining yangi taraqqiyot bosqichi istiqlol yillariga to'g'ri keldi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Mahmudov, E.B., Zuparov, V.Z., Xolmatov, O.A. Radioaloqa, radioeshittirish va televide niye. — Toshkent: G'afur G'ulom, 2007. — B. 113.
2. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). Buxoro: Durdona, 2022.
3. O'zME T harfi. — Toshkent: Davlat ilmiy nashiryoti, 2004. — B. 232.
4. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). — B.45.
5. O'zME. — Toshkent: Qomus, 1997. — B.500.
6. Псурцев Н.Д. Развитие связи в СССР (1917-1967 гг.). — М.: Связь, 1967. — С.51.
7. Matchanov, Q. Istiqbol ufqulari. — Urganch: Murabbiy, 1992.— B.36.
8. Masharipov M. Oynai jahon. — Urganch: Xorazm, 2012. — B.76.
9. Yo'ldoshev U.Zamon bilan hamnafas // "Xabar" gazetasi, 2021, 10ktyabr, 39 (1513). — B.7.
10. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). — B.54.
11. Haydarov X, Usmonov Q. Jizzax tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 2009. — B.260.
12. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). — B.54,81.
13. Mtrk.uz. 19.09.2021.
14. Samtvr.uz. 29.12.2021й.
15. Jumaboyev O. "Telefot"dan raqamli tasvirgacha // "Xabar" gazetasi, 2021, 30 iyul, 30 (1504). — B.6.
16. Mtrk.uz. 19.09.2021.
17. Mtrk.uz. 19.09.2021.
18. Navoiy viloyati televide niyesi ma'lumotnomasi.
19. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. —T:O'zbekiston, 2001 – B.350.
20. Mtrk.uz. 19.09.2021.
21. Yusupov I.S. Xorazmda televide niyen paydo bo'lishi va shakllanish tarixi. B. 249.
22. Mtrk.uz. 19.09.2021.
23. Utermuratov A. "Ilk qadam". // "Xabar" gazetasi, 2021, 29 oktyabr, 43 (1517). — B.3.
24. Samtvr.uz. 29.12.2021й.
25. Yusupov I.S. Istiqlol yillarda Xorazm televide niyesining yangi bosqichga ko'tarilishi tarixi // "Janubiy Orolbo'y arxeologiyasi, etnografiyasi: tarix va tarixshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. — Nukus, 2019. — B. 175.
26. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O'zbekiston NMIU. 2017. — B. 256.

(Taqrizchi: B.Usmanov – tarix fanlari doktori)